

MORFOLOGIYAGA DOIR MASHQLAR MISOLIDA KREATIVLIKNI OSHIRISH USULLARI

Karimova Shahlo

Oriental oliy ta'lim muassasasi dotsent v.b., PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7093650>

Annotatsiya. Ushbu maqolada VI sinf o'quvchilariga sifat so'z turkumi va uning yasalishi yuzasidan nazariy ma'lumotlarni interfaol usullarda o'rgatish, ularning nutqida yasama sifatlarning to'g'ri qo'llanilishiga erishish, so'z boyligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Tavsiya etilgan metod va uslublar og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini to'ldirishga, ifodaning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metod, metodologiya, sifat, sifat yasalishi, yasovchi qo'shimchalar atama, lug'at, pedagogik mahorat, bilim, malaka, ko'nikma, muammoli vaziyat, yozma nutq, baholash mezonlari.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КРЕАТИВНОСТИ НА ПРИМЕРЕ УПРАЖНЕНИЙ ПО МОРФОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье будет показано множество способов обучения учащихся VI класса теоретическим сведениям о прилагательных и их образовании интерактивными способами, добиться правильного употребления искусственных прилагательных в своей речи, увеличить словарный запас. Рекомендуемые методы и приемы служат для развития устной и письменной речи, пополнения словарного запаса, дальнейшего расширения возможностей выражения.

Ключевые слова: метод, методика, качество, формирование качества, формообразовательный аффикс, лексика, педагогические умения, знания, компетентность, умения, проблемная ситуация, письменная речь, критерии оценки.

WAYS TO INCREASE CREATIVITY ON THE EXAMPLE OF EXERCISES ON MORPHOLOGY

Abstract. In this article, there are many ways to teach students of the VI class theoretical information about adjectives and their formation in interactive ways, to achieve the correct use of artificial adjectives in their speech, and to increase vocabulary. will be shown. The recommended methods and techniques serve to develop oral and written speech, to fill the vocabulary, and to further expand the possibilities of expression.

Keywords: method, methodology, quality, formation of quality, formative adverbs term, vocabulary, pedagogical skills, knowledge, competence, skill, problem situation, written speech, evaluation criteria.

KIRISH

Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarni beruvchi darslarni tashkil qilish shakli, mavzu qamrovi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, o'quv material shakli va hajmi, ta'limga tanlangan usullar, o'quv xonasining imkoniyatlariga qarab rejalashtiriladi. O'qituvchining kreativ yondashuvi, bilimi, tajriba va malakasi-yu pedagogik mahorati ayni mana shu usullardan to'g'ri va maqsadli foydalanish bilan o'lchanadi. Zeroki ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantiradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Misol uchun, ot soʻz turkumi mavzusini oʻtishda “M”dan “m” gacha oʻyinini oʻtkazish mumkin. Bunda qisqa fursatda oʻquvchi kerakli soʻzni topib ishlatishi talab etiladi. Deylik, taxminan savol, topshiriqlar quyidagicha boʻladi. 1. Yelim. 2. Arab harfi. 3. Ish surʼatini belgilovchi mezon. 4. Doim. 5. Aza. 6. Musiqiy atama. 7. Zarur. 8. Yilning maʼlum fasli. 9. Oshkor, ayon, aniq. 10. Dardga davo dori. 11. Vafot etgan. 12. Noaniq. 13. Jazoga hukm qilingan. 14. Behahra, benasib. 15. Oʻqituvchi, ustoz. 16. Azim, ulkan, ulugʻvor. 17. Shakllangan, joylashgan. 18. Mashina, asbob, apparat va shunga oʻxshash narsalarning ichki tuzilishi. 19. Hurmat va ehtiromga sazovor. 20. Eng koʻp miqdor. 21. Qamariy yil hisobida birinchi oyning nomi. 22. Ogʻirlik oʻlchovi. 23. Mahkam.

Berilgan jumladan tushirib qoldirilgan soʻz (“m”dan “m”gacha)ni toping: *Kosib yangi tikilgan kavushlarga (yelim) surkab, avaylab tokchaga taxlay boshladi.*

Morfologiya boʻlimi mavzulari ichida, umuman ona tili mavzulari ichida sifat mavzusini oʻquvchi yengil hazm qiladi, oson oʻzlashtiradigandek tuyuladi, biroq ahamiyatli oʻrinlari, murakkab savollar paydo qiladigan jihatlari ham yoʻq emas.

Dars mavzusi: Sifatning yasalishi

Darsning taʼlimiy maqsadi: *sifatlarning yasalishi, sifat yasovchi qoʻshimchalar haqida maʼlumot berish.*

Tarbiyaviy: *oʻquvchilarda oilaga va ona tabiatga mehr-muhabbat tuygʻusini uygʻotish, insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirish.*

Rivojlantiruvchi: *oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqida yasama sifatlarning qoʻllanilishini oʻstirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlarda toʻgʻri yechimni qisqa fursatda topish koʻnikmasini rivojlantirish*

Darsning jihozi: *darslik, elektron darslik, rangli rasmlar, marker, gul, kompyuter, proyektor.*

Darsning usuli: noanʼanaviy, interfaol dars. “Ijodkorlik daqiqasi” “Aqliy hujum”, “Tushunchalar tahlili” metodi, klaster

Mashgʻulot. Salomlashilgandan soʻng uyga vazifa tekshiriladi.

“Tong” mavzusidagi matn yuzasidan “Ijodkor oʻquvchi” taʼlimiy musobaqasi oʻtkaziladi. Unda oʻqituvchi matnni oʻqib beradi, davomini esa oʻquvchilar ijodkorligiga tayangan holda davom ettirishlari kerak boʻladi.

SHUKRONALIK

Tong... Oppoq, nafis va begʻubor tong yorishib kelayotir! Quyosh oʻzining zarrin nurlari ila hayot davomiyligini aks etayotgandek koʻrinadi. Koʻzlarimni quyosh jilvalariga qadayman. Quloqlarim esa beixtiyor tabiatni, tong musiqasini tinglashga shay. Koʻhna bu ochunning jamoliga boqib toʻymayman! Atrofga yoqimli boʻy taratayotgan turfa gullarda goʻzallik mujassam.

Oʻquvchilar matnni diqqat bilan eshitib, matnda keltirilgan sifatlarni eslab qolishga harakat qiladi. Matnni tuzishda ijodkorlik bilan yondashib, badiiy soʻz sanʼatidan mohirlik bilan foydalana olgan holda matnni davom ettiradilar. Shuningdek, matndagi sifatlarni yaxshi eslab qolgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladilar.

“Bizdan sizga savollar” oʻyini

Sinf oʻquvchilari bunda guruhlariga boʻlinadi, oʻtilgan mavzulari yuzasidan har bir guruhga 2 tadan savol beriladi. Yoki bir guruh ikkinchisiga, ular esa boshqasiga ketma-ket savol beradilar. Savollar quyidagilar boʻlishi mumkin:

1-guruh: *Qanday soʻzlar sifat soʻz turkumiga oid boʻladi?*

Sifatlar gapda qanday gap boʻlagi boʻlib keladi?

2-guruh: *Sifatlar qaysi soʻz turkumiga bogʻlanadi?*

Mustaqil soʻzlar bilan yordamchi soʻzlar qanday farqlanadi?

3-guruh: *Sifatlar qanday soʻroqlarga javob boʻladi?*

Sifatlarning qanday turlarini bilasiz?

4-guruh: *Qanday soʻz yasovchi qoʻshimchalarni bilasiz?*

5-guruh: *Soʻz tarkibi nimbardan iborat boʻladi?*

Qoʻshimchalar vazifasiga koʻra necha turga boʻlinadi?

Shundan soʻng musobaqada faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi. Guruhlar yigʻib borayotgan ball eʻlon qilinadi.


Yana bir interfaol usuldan foydalanish mumkin: “Zanjir” oʻyini oʻtkaziladi. Har bir guruh aʻzosi oʻz ismlarining bosh harfi bilan boshlanadigan sifatlarga misollar topib, gulni bir-birlariga tezkorlik bilan uzatishadi. Ikkilanib qolgan yoki xato qilgan oʻquvchi zanjirni uzgan hisoblanadi va oʻyindan chetlashtiriladi. 2-oʻyin sifatlardan atoqli otlarga oʻtgan sifatlarga navbat bilan misollar keltirishga qaratiladi.

Yangi mavzu bayoni: *Muammoli vaziyat paydo qilish bilan boshlanadi. Oʻquvchilarning qoʻllariga magnitli qogʻozga soʻz yasovchi qoʻshimchalar yozilgan holda tarqatiladi va doskaga boshqa soʻz turkumlari yozib qoʻyilgan boʻladi. Masalan, qayna, qadr, pul, yugur...*

Oʻquvchilar qoʻlidagi qoʻshimcha qaysi soʻzga birikib, yangi soʻz hosil qilsa, shu soʻz tagiga yopishtirib qoʻyadi. Qolgan oʻquvchilar uning javobi toʻgʻri boʻlsa, daftarlariga yozib borishlari maqsadga muvofiq boʻladi. M: qadr + don qoʻshimchasini mos ekanligini bilib tagiga yopishtiradi.

Hech bir soʻzga birikolmaydigan qoʻshimchalar doska chetiga yopishtiriladi. (Chalgʻitish uchun shakl yasovchilar qoʻshib qoʻyiladi).

Oʻquvchilarga Sifatlarning yasalishi “slayd” orqali tushuntiriladi. Sifatlar ikki xil usul bilan yasaladi: Soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish orqali va soʻzga soʻzni qoʻshish orqali:






TADQIQOT NATIJALARI

Slaydga – gulli mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, gʻamxoʻr qiz suhbatlashayotgan holati tasvirlanadi.

Oʻsha rasmlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib, sifat hosil qilinishi tushuntiriladi. Masalan: mato, tadbirkor kishi, serhasham uy, gʻamxoʻr soʻzlari tahlil qilinadi. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning vazifasi, asosga qoʻshilib, sifat hosil qilishi boshqa soʻz turkumlaridan sifatlarning yasalishi tushuntiriladi.

Shu oʻrinda shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoli qoʻshimchalar haqida ham maʼlumot berib oʻtish maqsadga muvofiq.





MUHOKAMA

Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan sifatlar tub sifatlar, asos va so'z yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar esa yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun 328-mashq yozma bajariladi. To'g'ri va xatosiz bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladilar. O'zlashtirishga qiynalgan o'quvchilar o'qituvchining diqqat markazida bo'ladi. Savol va topshiriqlar asosan ular bilan ishlanadi. Ularga individual yordam ko'rsatiladi. O'quvchilar qo'llarida oldindan tayyorlangan quyidagi:

Yasama
sifat

Tub

sifat shaklidagi ko'rsatkichlar bo'ladi.

O'qituvchi tomonidan aralash o'qilgan sifatlarni (*katta, shirin, shiroyli, odobli, guldor, sariq, oq, serdaromand, qizil, bezarar, shinam, yaxshi, basavlat, nodon, unumsiz, sho'x, vijdotsiz, tetik, ziyrak, sirdosh, shaxsiy, oddiy, zulmkor, achchiq*) tezlikda tub yoki yasama sifatlarga ajratilib qaysi sifatga oid ekanligini qo'lidagi ko'rsatkichlar orqali ko'rsatib boradilar. Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali ajratib beradilar. Bu o'yin ham o'qituvchi tomonidan ziyraklik bilan kuzatib boriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar ham o'qituvchi nazaridan chetda qolmasligi kerak. 3-4 martagacha xato qilgan o'quvchiga qo'shimcha topshiriq – tarqatma materiallar beriladi. Ballar yig'ilib, g'olib guruh e'lon qilinadi.

Muammo shu tarzda yechiladi. Darslikdagi 328-mashq yozma daftarda bajariladi. Uyga vazifa qilib, 329-mashq beriladi, dars so'ngida baholar eshittirilib, g'olib guruh e'lon qilinadi, faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'zlashtirishga qiynalgan o'quvchilar qo'shimcha darslarga jalb qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi dars ishlanmasida keltirilgan metodik tavsiya va ko'rsatmalardan boshqa mavzular o'zlashtirishida ham foydalanish mumkin. Masalan, ot yasalishi, fe'l yasalishi va h.k. Bunday ilg'or pedagogik texnologiyalarning har qanday shaklidan to'g'ri va maqsadli foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash, vaziyatni tahlil qila olish va qisqa fursatda xulosa chiqara bilishga o'rgatadi. Ularning nutqidagi lug'at tarkib boyishiga, muomalada o'rinli foydalanishga yordam beradi. O'quv jarayoni maqsadlaridan kelib chiqqna holda tanlangan bunday usullarni qo'llash o'quvchilarning til olamiga qiziqishini oshiradi, so'z saltanati naqadar keng va go'zal, maftunkor ekanini anglatishga yordam beradi, ulardagi ijodkorlikni rivojlantiradi, ilmiy-nazariy bilimlarini boyitishga keng imkon yaratadi.

REFERENCES

1. O`zbek tili va adabiyoti ta`limida zamonaviy pedagogic texnologiyalar. Fan dasturi. Toshkent, 2016.
2. Omonov H., va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent,2009.
3. Nurmonov A va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Darslik. Akademik litsey II kurs uchun.Toshkent,"Ilm-ziyo", 2010.
4. G`ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, "O`qituvchi", 2003.
5. HOJIYEV A. O`zbek tili morfemikasi va so`z yasalishining nazariy asoslari. Toshkent, Fan, 2010.
6. Jamolxonov H. O`zbek tilining nazariy fonetikasi. Toshkent, Fan, 2009
7. Rahimov S, Umurqulov B. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, "O`qituvchi", 2003.
8. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2009.